

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

NUTQIY SAVODXONLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA LINGVODIDAKTIK YONDASHUVNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Jurayeva Nilufar

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, mustaqil izlanuvchi.

e-mail: nilufarjurayeva@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-0911-4579>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada nutqiy savodxonlik kompetensiyasini rivojlantirishda lingvodidaktik yondashuvning ilmiy-metodik asoslari tahlil qilinadi. Unda nutqiy savodxonlikning mazmuni, tarkibiy komponentlari, uni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik omillar hamda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan samarali usullar yoritilgan. Shuningdek, maqolada matn bilan ishlash, kommunikativ mashqlar, refleksiv tahlil va integrativ yondashuv asosida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish imkoniyatlari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: nutqiy savodxonlik, kompetensiya, lingvodidaktika, kommunikativ yondashuv, matn, refleksiya, metodika, ta'lim.

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ КОМПЕТЕНЦИИ РЕЧЕВОЙ ГРАМОТНОСТИ

Жураева Нилуфар

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, независимый исследователь.

Аннотация.

В данной статье анализируются научно-методические основы лингводидактического подхода в развитии речевой грамотности. Раскрываются содержание речевой грамотности, её структурные компоненты, методические факторы, способствующие её формированию, а также эффективные методы, применяемые в образовательном процессе. Кроме того, в статье обосновываются возможности развития речевой компетенции на основе работы с текстом, коммуникативных упражнений, рефлексивного анализа и интегративного подхода.

Ключевые слова: речевая грамотность, компетенция, лингводидактика, коммуникативный подход, текст, рефлексия, методика, образование.

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE LINGUODIDACTIC APPROACH TO DEVELOPING SPEECH LITERACY COMPETENCE

Jurayeva Nilufar

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Independent Researcher.

Abstract.

This article analyzes the scientific and methodological foundations of the linguodidactic approach to developing speech literacy competence. It reveals the content of speech literacy, its structural components, methodological factors contributing to its formation, and effective methods used in the educational process. In addition, the article substantiates the possibilities of developing speech competence through text-based work, communicative exercises, reflective analysis, and an integrative approach.

Keywords: speech literacy, competence, linguodidactics, communicative approach, text, reflection, methodology, education.

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida shaxsning nutqiy savodxonligi uning umumiy madaniyati, kommunikativ faolligi, ijtimoiy moslashuvi va kasbiy tayyorgarligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning nutqiy savodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki o'qituvchi faoliyatida nutq nafaqat axborot uzatish vositasi, balki ta'lim oluvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, bilimlarni tushunarli yetkazish, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish va pedagogik jarayonni boshqarishning asosiy vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Nutqiy savodxonlik kompetensiyasi shaxsning og'zaki va yozma nutqdan adabiy til me'yorlariga, kommunikativ vaziyatga, muloqot maqsadiga va kasbiy faoliyat talablariga mos ravishda foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur kompetensiya grammatik to'g'rilik, leksik boylik, uslubiy moslik, mantiqiy izchillik, talaffuz madaniyati, matn tuzish ko'nikmasi, fikrni asoslash va nutqiy etikaga rioya qilish kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Shu bois nutqiy savodxonlikni rivojlantirish masalasi faqat til o'rgatish yoki imloviy xatolarni bartaraf etish bilan cheklanmaydi, balki

shaxsning kommunikativ, madaniy, intellektual va kasbiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda qaraladi.

Mazkur jarayonda lingvodidaktik yondashuv muhim ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Lingvodidaktik yondashuv tilni o'qitish, nutqiy faoliyatni rivojlantirish, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish hamda ta'lim oluvchining til vositalaridan ongli va maqsadli foydalanishiga yo'naltirilgan metodik tizimni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv orqali nutqiy savodxonlik kompetensiyasini rivojlantirishda til birliklari, nutqiy vaziyatlar, matn ustida ishlash, kommunikativ topshiriqlar, ijodiy mashqlar va refleksiv tahlil o'zaro uyg'un holda qo'llaniladi.

Bugungi kunda ta'limning kompetensiyaviy, kommunikativ va shaxsga yo'naltirilgan paradigmaları nutqiy savodxonlikni rivojlantirishning yangi metodik mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etmoqda. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ularning og'zaki va yozma nutq madaniyatini shakllantirish, pedagogik muloqotga tayyorlash, ilmiy va kasbiy matnlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Chunki nutqiy jihatdan savodxon o'qituvchi ta'lim jarayonida bilimlarni aniq va ta'sirchan yetkazish, o'quvchilarning fikrlash faolligini oshirish hamda ijobiy kommunikativ muhit yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, nutqiy savodxonlik kompetensiyasini rivojlantirishda lingvodidaktik yondashuvning ilmiy-metodik asoslarini tadqiq etish nazariy va amaliy jihatdan muhimdir.

Nutqiy savodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy lingvodidaktika, kommunikativ tilshunoslik va pedagogika fanlarida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida o'rganiladi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur kompetensiya shaxsning og'zaki va yozma nutqdan adabiy til me'yorlari, kommunikativ vaziyat, muloqot maqsadi va uslubiy talablar asosida foydalana olish qobiliyati sifatida talqin etiladi [1; 2; 6; 7].

Nutq madaniyati va uslubiyatga oid manbalarda nutqiy savodxonlik fikrni adabiy til me'yorlariga muvofiq, aniq, mantiqan izchil, ta'sirchan va vaziyatga mos tarzda ifodalash qobiliyati sifatida yoritiladi [1; 2]. O'zbek nutqi madaniyati va stilistikaga oid tadqiqotlarda esa uslubiy moslik, so'z tanlash madaniyati, muloqot vaziyatini hisobga olish, og'zaki va yozma nutq shakllarining o'ziga xos xususiyatlari alohida ta'kidlanadi [9; 10]. Shu bois nutqiy savodxonlik kompetensiyasini rivojlantirishda grammatik to'g'rilik bilan birga, kommunikativ maqsad, tinglovchi xususiyati, matnning mazmuniy yaxlitligi va nutqiy etika ham e'tiborga olinishi zarur.

Lingvodidaktik yondashuvda til birliklari, nutqiy faoliyat, matn, kommunikativ vaziyat va refleksiv tahlil o'zaro bog'liq holda o'rganiladi. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritishga oid manbalarda yozma nutq, rasmiy matn tuzish, uslubiy aniqlik va adabiy me'yorlarga rioya qilish muhim metodik talab sifatida ko'rsatiladi [4]. Ona tili va o'zbek tili o'qitish metodikasiga doir adabiyotlarda esa til materiallarini amaliy nutqiy faoliyat bilan bog'lab o'rgatish, matn ustida ishlash, ijodiy topshiriqlar va kommunikativ mashqlardan foydalanish samarali yo'l sifatida asoslanadi [6; 7]. Matn lingvistikasi bo'yicha tadqiqotlar nutqiy savodxonlikni rivojlantirishda matnning tuzilishi, mazmuniy izchilligi, uslubiy xususiyati va kommunikativ vazifasini tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi [8].

Nutqiy savodxonlik kompetensiyasi zamonaviy ta'lim jarayonida shaxsning og'zaki va yozma nutqdan ongli, maqsadli, mantiqan izchil hamda kommunikativ vaziyatga mos tarzda foydalana olish qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur kompetensiya oddiy savodxonlik, ya'ni imlo va grammatik qoidalarini bilish bilangina cheklanmaydi. U til birliklaridan to'g'ri foydalanish, fikrni mazmunan izchil bayon qilish, matn yaratish, dalillash, muloqot jarayonida nutqiy etikaga rioya qilish, tinglovchi yoki o'quvchining yosh, psixologik va kommunikativ xususiyatlarini hisobga olish kabi ko'nikmalarni ham qamrab oladi.

Lingvodidaktik yondashuv nutqiy savodxonlik kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki lingvodidaktika tilni o'qitish jarayonini faqat nazariy qoidalar tizimi sifatida emas, balki nutqiy faoliyat, kommunikativ vaziyat, matn bilan ishlash, til birliklarining amaliy qo'llanishi va shaxsning nutqiy rivojlanishi bilan bog'liq holda o'rganadi. Shu jihatdan lingvodidaktik yondashuv nutqiy savodxonlikni shakllantirishda til, nutq, tafakkur, muloqot va madaniyatning o'zaro aloqadorligini ta'minlaydi.

Nutq madaniyati va uslubiyatga oid ilmiy-metodik manbalarda tilni bilish faqat grammatik qoidalarini egallash bilan cheklanmasligi, balki fikrni vaziyatga mos, mantiqan izchil va ta'sirchan tarzda ifodalash malakasi bilan bog'liq ekani ta'kidlanadi [1; 2]. Ushbu yondashuv nutqiy savodxonlik kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki o'quvchi yoki talaba grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzishi mumkin, biroq nutqning maqsadi, tinglovchining holati, muloqot sharoiti va uslubiy moslik hisobga olinmasa, bunday nutq kommunikativ jihatdan yetarli bo'lmaydi [9; 10].

O'zbek tilshunosligi va ona tili o'qitish metodikasiga oid manbalarda nutqiy savodxonlik adabiy me'yor, uslubiy moslik, matn tuzish, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish hamda kommunikativ vaziyatga mos ifoda vositalarini tanlash bilan bog'liq holda izohlanadi [6; 7]. Bu yondashuv nutqiy savodxonlikni rivojlantirish uchun metodik jihatdan qulay asos yaratadi. Lingvistik savodxonlik til birliklarini to'g'ri qo'llashni, uslubiy savodxonlik vaziyatga mos nutq shaklini tanlashni, matn savodxonlik esa fikrning mazmuniy izchilligi va yaxlitligini ta'minlashni nazarda tutadi [8; 10]. Demak, nutqiy savodxonlik kompetensiyasini rivojlantirishda ushbu komponentlarning barchasini birgalikda shakllantirish zarur.

Lingvodidaktik yondashuvning asosiy metodik talabi — tilni amaliy nutqiy faoliyat bilan bog'lab o'rgatishdir. Bunda ta'lim oluvchi tayyor qoidalarini yodlab oluvchi passiv subyekt emas, balki matn yaratadigan, fikr bildiradigan, savol beradigan, munozarada qatnashadigan, o'z nutqini tahlil qiladigan faol ishtirokchi sifatida qaraladi. O'qituvchi nutqi madaniyati va notiqlik san'atiga oid manbalarda pedagogik nutqning aniqligi, ta'sirchanligi, mantiqiyligi va tarbiyaviy yo'naltirilganligi alohida ta'kidlanadi [3; 5]. Shu sababli nutqiy savodxonlikni rivojlantirishda ta'lim oluvchini real yoki modellashtirilgan muloqot vaziyatlariga jalb etish, uning nutqiy faolligini oshirish va refleksiv tahlilga yo'naltirish muhimdir [6].

Nutqiy savodxonlik kompetensiyasining lingvodidaktik asoslarini belgilashda birinchi navbatda uning tarkibiy

komponentlarini aniqlash zarur. Mazkur kompetensiya lingvistik, kommunikativ, diskursiv, sotsiomadaniy, pragmatik va refleksiv komponentlardan iborat murakkab tizim sifatida talqin qilinadi. Lingvistik komponent fonetika, leksika, grammatika, imlo va tinish belgilaridan to'g'ri foydalanishni o'z ichiga oladi. Kommunikativ komponent fikrni og'zaki va yozma shaklda maqsadga muvofiq ifodalash, savol-javobda qatnashish va muloqotda faol bo'lishni ta'minlaydi. Diskursiv komponent esa gaplarni izchil bog'lash, matn yaratish, mavzuni rivojlantirish va xulosalash ko'nikmalariga asoslanadi.

Sotsiomadaniy komponent nutqning madaniy kontekstga mosligini ta'minlaydi. Bu komponent orqali ta'lim oluvchi turli kommunikativ vaziyatlarda murojaat shakllari, odob-axloq me'yorlari, rasmiy va norasmiy uslub, milliy nutq madaniyati hamda muloqot etikasi talablariga rioya qilishni o'rganadi. Pragmatik komponent esa nutqning maqsadga yo'naltirilganligini ifodalaydi. Ya'ni so'zlovchi yoki yozuvchi o'z fikrini faqat bayon qilibgina qolmay, balki tinglovchiga ta'sir ko'rsatish, uni ishontirish, tushuntirish, izohlash yoki bahsga jalb etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Refleksiv komponent esa o'z nutqini baholash, xatolarni aniqlash, ularni tuzatish va nutqiy faoliyatni takomillashtirish bilan bog'liqdir.

Lingvodidaktik yondashuvda matn bilan ishlash nutqiy savodxonlikni rivojlantirishning markaziy vositalaridan biri hisoblanadi. Chunki matn til birliklarining real qo'llanish maydoni bo'lib, unda leksik, grammatik, uslubiy va mazmuniy birliklar o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi. Ta'lim oluvchi matnni o'qish, tahlil qilish, qayta hikoya qilish, reja tuzish, asosiy g'oyani aniqlash, dalillarni ajratish, matnni qisqartirish yoki kengaytirish, boshqa uslubga ko'chirish orqali nutqiy savodxonligini rivojlantiradi [8]. Shuningdek, rasmiy, ilmiy va publitsistik matnlar bilan ishlash yozma nutq madaniyatini, uslubiy aniqlikni va matn yaratish ko'nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiladi [4; 10].

Nutqiy savodxonlikni rivojlantirishda mashqlar tizimi bosqichma-bosqich va maqsadli tashkil etilishi lozim. Lingvodidaktik nuqtayi nazardan mashqlarni reproduktiv, konstruktiv, kommunikativ va ijodiy-refleksiv turlarga ajratish mumkin. Reprodutiv mashqlar til me'yorlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Masalan, imloviy xatolarni tuzatish, tinish belgilarini qo'yish, so'z birikmalarini to'g'ri tuzish, gap bo'laklarini aniqlash, sinonim va antonimlardan foydalanish kabi topshiriqlar ushbu turga kiradi. Bunday mashqlar nutqiy savodxonlikning lingvistik asoslarini mustahkamlaydi.

Konstruktiv mashqlar ta'lim oluvchining tayyor til materialini qayta ishlashi, fikrni mantiqan tartiblashi va matn tuzilishini anglashiga yordam beradi. Bunga gaplardan matn tuzish, berilgan matnni qisqartirish, mavzuga mos kirish va xulosa yozish, dalillarni tartibga solish, ilmiy yoki rasmiy uslubdagi matnni oddiy izohli shaklga keltirish kabi mashqlar kiradi. Kommunikativ mashqlar esa nutqiy faoliyatni real muloqotga yaqinlashtiradi. Munozara, savol-javob, taqdimot, intervyu, rolli o'yin, muammoli vaziyatni hal qilish, auditoriyaga murojaat qilish kabi faoliyat turlari ta'lim oluvchining nutqiy savodxonligini amaliy jarayonda rivojlantiradi.

Ijodiy-refleksiv mashqlar nutqiy kompetensiyani yuqori bosqichga olib chiqadi. Bunda ta'lim oluvchi mustaqil matn yaratadi, o'z fikrini asoslaydi, dalillar keltiradi, turli janrlarda yozadi, nutqiy xatolarini tahlil qiladi va takomillashtirish yo'llarini belgilaydi. Masalan, "mavzu bo'yicha qisqa esse yozish", "ilmiy matnga annotatsiya tuzish", "pedagogik vaziyatni izohlash", "o'z nutqidagi xatolar tahlili", "bahsli masala yuzasidan asoslangan fikr bildirish" kabi topshiriqlar nutqiy savodxonlik kompetensiyasining refleksiv va ijodiy jihatlarini rivojlantiradi.

Lingvodidaktik yondashuv nutqiy savodxonlikni rivojlantirishda og'zaki va yozma nutqning uzviyligini ta'minlashni talab etadi. Amaliyotda ko'pincha yozma savodxonlik imlo va grammatik qoidalar bilan, og'zaki nutq esa ravon gapirish bilan cheklanadi. Aslida esa og'zaki va yozma nutq o'zaro bog'liq jarayonlardir. Og'zaki nutq fikrni tezkor ifodalash, auditoriya bilan muloqot qilish, savollarga javob berish va vaziyatga moslashish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Yozma nutq esa fikrni puxta rejalashtirish, mantiqiy tuzilma yaratish, dalillash, tahrir qilish va uslubiy aniqlikni ta'minlash imkonini beradi. Shu sababli ta'lim jarayonida og'zaki taqdimot va yozma matn yaratish topshiriqlari o'zaro bog'liq holda qo'llanishi kerak.

Nutqiy savodxonlik kompetensiyasini rivojlantirishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati ham katta. Ona tili va o'zbek tili o'qitish metodikasiga oid manbalarda tilni o'qitish jarayonida nazariy bilimlarni amaliy nutqiy faoliyat bilan bog'lash, o'quvchini faol muloqotga jalb etish, matn ustida ishlash va ijodiy topshiriqlardan foydalanish samarali metodik yo'l sifatida ko'rsatiladi [6; 7]. Bu nuqtayi nazardan, nutqiy savodxonlikni shakllantirishda ta'lim oluvchiga tayyor qoidani yodlatishdan ko'ra, uni mazmunli nutqiy vaziyatga kiritish samaraliroqdir. Masalan, talabaga "berilgan matndagi grammatik xatolarni toping" degan topshiriq bilan bir qatorda, "ushbu mavzuni o'quvchilarga tushunarli shaklda izohlang", "rasmiy murojaat matnini tuzing", "bahsda o'z pozitsiyangizni asoslang" kabi kommunikativ topshiriqlar berilishi zarur.

Lingvodidaktik yondashuvda ta'lim oluvchining nutqiy xatolari bilan ishlash alohida o'rin tutadi. Xatolarni faqat bahoni pasaytiruvchi kamchilik sifatida emas, balki o'rganish jarayonining tabiiy bosqichi sifatida ko'rish lozim. Xatolar tahlili orqali ta'lim oluvchi o'zining zaif jihatlarini anglaydi, o'qituvchi esa keyingi metodik ish yo'nalishini aniqlaydi. Bunda xatolarni fonetik, leksik, grammatik, uslubiy, mantiqiy, diskursiv va pragmatik turlarga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Masalan, matnda so'z tanlashdagi noaniqlik leksik xato bo'lsa, fikrlar ketma-ketligining buzilishi diskursiv xato, vaziyatga mos bo'lmagan murojaat shakli esa pragmatik xato sifatida baholanadi.

Nutqiy savodxonlik kompetensiyasini baholash ham lingvodidaktik tamoyillarga asoslanishi kerak. Nutq madaniyati va uslubiyatga oid manbalarda nutqning to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyliqi, ta'sirchanligi, uslubiy mosligi va adabiy til me'yorlariga muvofiqligi asosiy mezonlar sifatida ko'rsatiladi [1; 2; 9]. Shu asosda nutqiy savodxonlikni baholashda quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin: lingvistik to'g'rilik, mazmuniy izchillik, uslubiy moslik, kommunikativ maqsadga erishish, matn tuzilishi, dalillash sifati, nutqiy etikaga rioya qilish va refleksiv tahlil qobiliyati [10]. Bunday kompleks baholash ta'lim oluvchining nutqiy savodxonligini bir tomonlama emas, balki tizimli aniqlash imkonini beradi.

Baholash jarayonida og'zaki va yozma topshiriqlar alohida mezonlar asosida tahlil qilinishi lozim. Og'zaki nutqda

talaffuz, ovoz ohangi, mantiqiy urg'u, ravonlik, auditoriya bilan aloqa, savol-javobga kirishish va noverbal vositalardan foydalanish muhim bo'lsa, yozma nutqda imlo, tinish belgilari, matn tuzilishi, dalillash, uslubiy aniqlik va tahrir ko'nikmalari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, har ikkala nutq shaklida ham asosiy mezon fikrning aniq, izchil va kommunikativ maqsadga mos ifodalanishidir.

Zamonaviy sharoitda nutqiy savodxonlik kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli-kommunikativ muhit imkoniyatlaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Elektron ta'lim platformalari, onlayn munozaralar, raqamli taqdimotlar, videodarslar, blog yozuvlari va elektron fikr-mulohazalar ta'lim oluvchining yozma hamda og'zaki nutqini rivojlantirish uchun yangi metodik imkoniyatlar yaratadi. Rasmiy yozishmalar, axborot matnlari va elektron muloqotda adabiy til me'yorlariga rioya qilish nutq madaniyatining muhim ko'rinishlaridan biri hisoblanadi [4]. Shu bois raqamli muhitda savodli, aniq va uslubiy jihatdan mos muloqot qilish bugungi ta'lim oluvchining zarur kompetensiyasiga aylanmoqda [6; 7].

Raqamli-kommunikativ topshiriqlar nutqiy savodxonlikni rivojlantirishda an'anaviy mashqlarni to'ldiradi. Masalan, talabalar elektron ta'lim platformasida mavzu bo'yicha qisqa izoh yozishi, videotaqdimot tayyorlashi, onlayn munozarada dalil keltirishi, elektron xat matnini rasmiy uslubda tuzishi, o'quv materialiga annotatsiya yozishi mumkin. Bunday topshiriqlar yozma va og'zaki nutq, raqamli savodxonlik, uslubiy moslik va kommunikativ mas'uliyatni birgalikda rivojlantiradi [4; 6; 7].

Lingvodidaktik yondashuvning yana bir muhim jihati — fanlararo integratsiyadir. Nutqiy savodxonlik faqat ona tili yoki til o'qitish metodikasi doirasida shakllanmaydi. U pedagogika, psixologiya, mutaxassislik fanlari, akademik yozuv, axborot texnologiyalari va amaliy mashg'ulotlar bilan bog'liq holda rivojlanadi. Masalan, pedagogika fanida talaba pedagogik vaziyatni tahlil qiladi, psixologiyada o'quvchi shaxsiga oid fikr bildiradi, mutaxassislik fanida ilmiy tushunchani izohlaydi, akademik yozuvda dalillangan matn yaratadi. Har bir fan nutqiy savodxonlikni rivojlantirish uchun metodik maydon vazifasini bajaradi [6; 7; 8].

Nutqiy savodxonlik kompetensiyasini rivojlantirishda o'qituvchining metodik pozitsiyasi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'qituvchi ta'lim oluvchining nutqiy faolligini cheklovchi emas, balki rag'batlantiruvchi, yo'naltiruvchi va tahlilga undovchi subyektlar bo'lishi kerak. U savollar berish, fikrni davom ettirishga undash, xatoni madaniyatli ko'rsatish, muqobil ifoda variantlarini taklif qilish, matnni qayta ishlashga yo'naltirish orqali ta'lim oluvchining nutqiy o'sishini ta'minlaydi. Bunday metodik yondashuv o'qituvchi nutqi madaniyati, notiqlik san'ati va shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga mos keladi [3; 5; 9].

Shunday qilib, nutqiy savodxonlik kompetensiyasini rivojlantirishda lingvodidaktik yondashuv til birliklari, nutqiy faoliyat, kommunikativ vaziyat, matn, madaniy kontekst, baholash va refleksiyaning yagona metodik tizimida birlashtiradi. Ushbu yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni ta'lim oluvchilarning nafaqat lingvistik bilimlarini, balki kommunikativ madaniyati, matn yaratish ko'nikmasi, fikrlash izchilligi va kasbiy nutq tayyorgarligini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada nutqiy savodxonlik kompetensiyasi shaxsning umumiy madaniy, intellektual va kasbiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim pedagogik natija sifatida namoyon bo'ladi [6; 8; 10].

Nutqiy savodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta'lim jarayonining muhim ilmiy-metodik vazifalaridan biridir. Mazkur kompetensiya shaxsning og'zaki va yozma nutqdan adabiy til me'yorlari, kommunikativ vaziyat, muloqot maqsadi hamda kasbiy faoliyat talablariga mos ravishda samarali foydalana olish qobiliyatini ifodalaydi. Shu sababli nutqiy savodxonlikni rivojlantirish faqat grammatik qoidalarini o'rgatish yoki imloviy xatolarni bartaraf etish bilan cheklanmasligi, balki ta'lim oluvchining kommunikativ, madaniy, intellektual va refleksiv rivojlanishi bilan bog'liq holda tashkil etilishi lozim.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, lingvodidaktik yondashuv nutqiy savodxonlik kompetensiyasini rivojlantirishda samarali metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuv til birliklarini nutqiy faoliyat, matn, kommunikativ vaziyat, madaniy kontekst va refleksiv tahlil bilan uzviy bog'liq holda o'rganishni nazarda tutadi. Natijada ta'lim oluvchi tilni faqat nazariy qoidalar majmui sifatida emas, balki fikrni aniq, izchil, madaniyatli va ta'sirchan ifodalash vositasi sifatida egallaydi.

Nutqiy savodxonlik kompetensiyasini rivojlantirishda lingvistik, kommunikativ, diskursiv, sotsiomadaniy, pragmatik va refleksiv komponentlarning o'zaro uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. Mazkur komponentlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni ta'lim oluvchilarning imlo, grammatika, talaffuz, uslub, matn yaratish, dalillash, muloqot madaniyati va o'z nutqini baholash ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi.

Shuningdek, nutqiy savodxonlikni shakllantirishda matn bilan ishlash, kommunikativ mashqlar, ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, og'zaki taqdimotlar, yozma ishlar, raqamli muloqot va refleksiv tahlil usullaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Bunday metodik vositalar ta'lim oluvchilarning faqat til bilimini emas, balki real muloqot jarayonida fikrni to'g'ri va maqsadga muvofiq ifodalash malakasini ham rivojlantiradi.

Umuman olganda, lingvodidaktik yondashuv asosida nutqiy savodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish ta'lim jarayonining mazmuni, metodlari, mashqlar tizimi, baholash mezonlari va refleksiv faoliyatini yagona metodik tizimga birlashtirishni talab etadi. Ushbu jarayonning izchil tashkil etilishi natijasida ta'lim oluvchilarda savodli nutq, mantiqiy fikrlash, kommunikativ faollik, matn yaratish madaniyati va kasbiy nutq tayyorgarligi shakllanadi. Bu esa nutqiy savodxonlik kompetensiyasini shaxsning umumiy madaniyati va kasbiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim pedagogik natija sifatida baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rasulov R., Mo'ydinov Q. *O'qituvchi nutqi madaniyati va notiqlik san'ati*. – Toshkent, 2020. – URL: <https://api.unilibrary.uz/storage/PublisherResourceFile/567731/images/1724389896.pdf>.

2. Qudratov T. *Nutq madaniyati asoslari*. – Toshkent: O'qituvchi, 1993. – URL: [https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/pedagogika/Nutq%20madaniyati%20asoslari%20\(T.Qudratov\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/pedagogika/Nutq%20madaniyati%20asoslari%20(T.Qudratov).pdf).
3. Mahmudov N. *O'qituvchi nutqi madaniyati*. – Toshkent, 2007. – URL: [https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/pedagogika/O'qituvchi%20nutqi%20madaniyati%20\(Nizomiddin%20Mahmudov\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/pedagogika/O'qituvchi%20nutqi%20madaniyati%20(Nizomiddin%20Mahmudov).pdf).
4. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. *Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish*. 7-to'ldirilgan nashr. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 144 b. – URL: <https://turan-edu.uz/media/books/2024/05/28/20eb6217-19ed-4119-8c82-b8b279abf286.pdf>.
5. Rasulov R., Mo'ydinov Q. *Nutq madaniyati va notqlik san'ati*. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2015. – URL: https://turan-edu.uz/media/books/2024/05/27/Nutq_madaniyati_va_notqlik_sanati_R_Rasulov_Q_Moydinov.pdf.
6. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. *Ona tili o'qitish metodikasi*. – Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b. – URL: [https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/ona_tili_va_adabiyot/Ona%20tili%20o'qitish%20metodikasi%20\(K.Qosimova,%20S.Matchonov%20va%20b.\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/ona_tili_va_adabiyot/Ona%20tili%20o'qitish%20metodikasi%20(K.Qosimova,%20S.Matchonov%20va%20b.).pdf).
7. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. *O'zbek tili o'qitish metodikasi*. – Toshkent, 2010. – URL: <https://unilibrary.uz/literature/795706>.
8. Yo'ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. *Matn lingvistikasi*. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – URL: https://tsuull.uz/sites/default/files/saparniyozova_0.pdf.
9. Omonturdiyev A. J., Abduraimova Sh. I. *O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyati*. – Toshkent, 2016. – URL: https://lib.utu-ranch.uz/media/files/2024/07/30/A.J._Omonturdiyev_.ozbek_nutqi_madaniyati_va_uslubiyati.pdf.
10. Sultonsaidova S., Sharipova O'. *O'zbek tili stilistikasi*. – Toshkent, 2010. – URL: [https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/onatili_va_adabiyot/O'zbek%20tili%20stilistikasi%20\(S.Sultonsaidova,%20O'.Sharipova\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/onatili_va_adabiyot/O'zbek%20tili%20stilistikasi%20(S.Sultonsaidova,%20O'.Sharipova).pdf).